

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Alisher UMAROV  
Ayubxon RADJIYEV  
Boris BLYAXER  
Risboy JO'RAYEV  
Rustem REIMOV  
Lola MO'MINOVA  
Sherzod SHERMATOV  
Sharibboy ERGASHEV  
G'ayrat SHOUMAROV

### Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

### Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

### Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Mualifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilarish va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualiflarning familyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

### Muassislari:

O'quvchilarni kasb-hunarga  
yo'naltirish va psixologik-  
pedagogik  
respublika tashxis markazi

Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,  
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazer t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI - 1019**



## MUNDARIJA

- 2 F.U.QODIROVA, M.YUNUSOV. Inklyuziv ta'limg sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o'qishiga ta'sir etuvchi omillar
- 3 U.FAYZIYEVA. Inklyuziv ta'limg istiqbollari
- 4 F.F.RASULOVA. Guruhda ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash (o'zaro hurmat va subordinatsiya)ga oid trening dasturi
- 6 L.SH.NURMUXAMEDOVA. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik yondashuvi
- 8 N.Z.ABIDOVA. Inklyuziv madaniyat – zamonaviy ta'limg falsafasi
- 10 M.U.XAMIDOVA. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni orlada rivojlantirish
- 12 X.U.ABDUSAMATOV. Ota obrazi haqidagi tasavvurlarning psixologik tahlil
- 13 X.R.XAYDAROVA. Ota-onalar virtual-pedagogik madaniyatining oиласидаги ма'naviy muhitiga ta'siri
- 15 A.OTEBAYEVA. Qoraqalpoq tilida ta'limg oladigan aqli zaif o'quvchilarni savodga o'rgatishdagi muammolar
- 17 R.MUSURMONOV, A.M.SUYAROV. Fan va zamonaviy ta'limg asosiy masalalari
- 19 E.N.SATTOROV. Psixologik hamrohlik kadrlar zahirasini shakllantirishning muhim sharti
- 21 O.T.SHIRINOV. O'qituvchi kasbiy kamolotida psixologik himoya
- 22 D.M.XAKIMOVA. Ta'limg sifatini oshirishda rahbar-kadrlar salohiyatini rivojlanishning asosiy yo'nalishlari
- 24 I.T.NURMATOVA. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga musiqiy ta'limg berishning ahamiyati
- 25 N.MADALIYEVA, F.RAUPOVA. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tasmini
- 26 SH.Z.MATUPAYEVA. Inklyuziv ta'limg sharoitida innovatsion faoliyatni tashkil etishda ta'limg klasterining ta'siri
- 27 M.D.ABDULLAYEVA. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni so'zlashishga doir ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtrish
- 29 B.B.MAVLONOV. Oila va ta'limg muassasasi hamkorligida yoshlarning hushyorlik va ogohlilik fazilatlarini rivojlanish
- 31 D.N.ARZIKULOV. Sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlashning ilmiy-nazariy tahlili
- 33 SH.T.XASANOVA. Yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirishda tarixiy obidalarning o'mi
- 35 SH.V.BEKNAYEVA. O'quvchilarga bilim berish jarayonida tarmoq texnologiyalari ta'sirining psixologik talqim
- 36 N.R.PULATOVA. Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv kompetentligini shakllantirishning individual traektoriyasini qurish
- 38 S.Q.ESHQOBILOV. Umumta'limg maktab direktori lavozimiga tayinlashda talabgorning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalananish kompetentligini baholash
- 40 J.S.XUDOYBERGANOV. Yoshlarda jismoniy chidamlilik sifatlarini rivojlanish
- 41 A.R.ABDULAXATOV, J.S.XUDOYBERGANOV, B.X.JUMADURDIYEV. Yoshlarni tarbiyalashda sport, ma'naviyat va qadriyatlardan foydalanshining samaradorligi
- 42 A.A.BURXANOV, S.M.AMINOV. Maktab o'quvchilarining ekologik dunyoqarashlarinis hakllantirish
- 43 Z.B.FAYZIYEV. O'quvchilarda millatlararo bag'rikenghkn shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'ziga xos o'mi



og‘iz orqali chucur nafas olish tavsya qilinadi. Asosiy e’tibor nafas chiqarishga qaratilishi, chunki o’pkadagi kislordi kam bo‘lgan havo yangi havo bilan aralashib ketmasligi uchun keskin va chucur nafas chiqarish tavsya qilinadi.

Yuqori malakali sportchilarda chidamlilikni tarbiyalashda hozirgi zamон metodikasi biror mashg‘ulotni o‘zidagina emas, trenirovka mashg‘ulotlarining yillik tsiklida ham juda katta hajmda ish bajarishni tavsya qilmoqda.

Masalan, mashhur fransuz sportchisi Allen Mimun o‘zining sport karperasi yillarda jami 85 ming km yurgan. Uni baholash maqsadida yer shari aylanasi-ekvatori 40 ming km ekanligini e’tiborga olsak, Magellanni birinchini marta uni aylanib o‘tishi uchun 3 yil sarflaganligini ko‘z oldimizga keltirishimiz lozim. “Sport yurushi” bilan shug‘ullanuvchilar bitta trenirovka mashg‘ulotida 100 km.gacha masofani o‘tadir.

Chidamlilikni tarbiyalashda faqat masofa uzunligini hisobga olish noto‘g‘ri natijaga olib kelishini unutmasligimiz lozim. Chunki jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan sportchi uchun 800 m ga yugurishga 1.45.0 dan tez vaqt sarflasa bu yuguruvchiga qayd qilin-gan masofa sprint masofasi bo‘lib xizmat qiladi. Yangi o‘rganuvechi uchun esa 3-3.5 min li muddat uzoq masofa rolini o‘ynashi mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. 1-tom.
2. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq.1993. 2-tom.
3. Sog‘lom avlod bizning kelajagimiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Sog‘lom avlod dasturini tasdiqlashga bag‘shlangan majlisda so‘zlagan nutqi. – T.: 2000.
4. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Respublika Prezidenti I.Karimovning «Unversiada-2000» sport anjumani qatnashchilariga tabrigi). – T.: 2000.
5. Ф.А. Абдурахмонов, В.А. Лемешков, А.Н. Ливитский, С.?К.Палов, Я.И.Яротский «Подготовка спортсменов» – Т.: 1992. из. отд. УзГИФК.
6. Palov SH.K; Abduraxmonov F.A; Akramov J.A, «Sport»; Uchebnik, O‘zJTI; – T.: 2005.
7. Salamov R.S. «Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari» O‘zDJTI. Nashriyot matbaa. – T.: 2005.
8. Salamov R.S; Yunusova Yu.M. «Jismoniy tarbiya nazariya va usuliyati» O‘quv qo’llanmasi. O‘zDJTI. Tip.– T.: 1997.

## YOSHLARNI TARBIYALASHDA SPORT, MA’NAVIYAT VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

**A.R.Abdulaxatov, Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsent v.b.**

**J.S.Xudoyberganov, mazkur institut o‘qituvchisi**

**B.X.Jumadurdiyev, Jizzax davlat instituti magistranti**

В статье рассказывается о воспитательном значении спорта, развитии духовности и уважение к национальным ценностям.  
Ключевые слова и понятия: борьба. Олимпийские игры, ценности, духовность, предки, учёные, соревнования, команда.

The article describes the educational value of sports, the development of spirituality and respect for national values.

Keywords and concepts: wrestling, Olympic Games, values, spirituality, ancestors, scientists, competitions, team.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlаридан boshlab respublikamизda jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor berildi. MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida “Jismoniy tarbiya va sport” to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. Bu Qonun va qarorlar mazmuni va mohiyati barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda kurash sport turining roli va o‘rnii beqiyosdir. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi kurashni jismoniy tarbiya va sportning muhim vositalaridan biri sifatida rivojlantirib kelmoqda. Bu borada ko‘pgina ilmiy va amaliy ishlar qilinmoqda. Kurash ilmining yetakchi mutaxassis-olimlari A.Atoev, J.Tursunov, K.Yusupov, O.Ibrohimov, O.Tymurodov, J.Nurshin, A.Ilov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida kurashning hozirgi zamон ilmiy, nazariя va amaliy asosları yaratildi, uning yangicha qonun-qoidalari ishlab chiqildi.

Ajdodalarimiz Alpomish, Rustam, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Pahlavon Mahmud va Bobur kabi afsونaviy tarixiy shaxslar ning kamol topishida kurashning roli va o‘rnii beqiyosdir. Ko‘rinib turibdiki, kurash O‘zbekistonning tarixiga ko‘ra juda qadim davrlarga borib taqaladi.

Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport hayotimizning tarkibiy qismalaridan biri sanalgan va uning rivojlanishi har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘langan.

Ayniqsa, keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sportning barcha yo‘nalishlari beqiyos darajada o’sdi. Buni sportchilarimizning Afina – 2004, Pekin-2008, London-2012, Rio-2016 Olimpiya o‘yinlaridagi ko‘rsatkichlari isbotlab turibdi.

Sportning ko‘plab turlari bo‘yicha respublikamizdagи termo jamoa azolarimiz jahon miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallamoqdalar. Bugungi kunda jahon ahli Muhammadqodir Abdullaev, Mirjalol Qosimov, Armen Bagdasarov, Artur Taymazov, Abdulla Tangriev, Rustam Qosimjonov, Abbas Atoev, yekatirina Xilkko, Dilshod Mansurov, Rishod Sobirov, Xasanboy Do’smatov, Shaxram G‘iyosov, Odil Axmedov, Muxsin Xisominovlarni serquyosh

O‘zbekiston farzandlari ekanliklarini yaxshi biladilar. O‘zbekiston farzandining ismi, sharifi xorijiy sport mutaxassislar-ju, ishqibozlarining qalbiga mustahkam o‘rnashib qolmoqda.

Sportchilar musobaqalashuv jarayonlarida jasoratlilik, matonatlilik, jismoniy baquvvatilik, iroda va qadriyatlilik kabi fazilatlar sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali amalga oshishini yaxshi biladilar vaunga amal qiladilar. Yuqorida qayd etib o‘tilgan sportchilar va ularning natijalari fikrlarini isbotidir.

Ma’naviyat – xalq tarixi, madaniyatni va vazifalarini chucur bilish va tushunish orqali aylangan qadratli kuch bo‘lib, u har bir insonning, millatning, davlatning kuch-qudrat manbaidir. Ma’naviyat-qalban va vijdongan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishdir. Sport mashg‘ulotlari va musobaqalari jarayonidagi sportchi faoliyati maqsad yo‘lidagi harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, u qalb, vijdon, aql va qo‘l amri bilan mehnat qilishdir.

Shunga amal qilgandagina sportchi g‘alaba nashidasini suradi. Ma’naviyat bo‘lmagan joyda baxt-saodat ham, ijmon-e’tiqod ham bo‘lmaydi va aksincha.

Ma’naviyat xalqlarni birlashtiradi, ular o‘rtasida ahillikni kuchaytiradi, do’sthlik, qardoshlik, hamjihatlikka da’vat etadi. Jismoniy tarbiya va sport ham xuddi ana shu jihatlarini tarbiyalashga xizmat qiladil va to‘ldiradi. O‘z o‘tmishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilmagan kishi hyech qachon komil inson bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor nihoyatda yuskakdir. Qadriyat – millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalarini majmuidir. Inson va uning hayoti esa eng oliy qadriyatdir. Jismoniy tarbiya va sport o‘z o‘rnida inson salomatligi, uni yaxshilash va mustahkamlash, ish unumdarligini oshirish, xushqomat va xushkayfiyatga ega bo‘lish yo‘lida xizmat qilishga yo‘naltirilgan. Shuning uchun ham jismoniy madaniyat ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalaniш muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda yuqorida qayd etib o‘tilgan o‘zbek sportining yulduzlar-sportchilarning xayot yo‘llari,



ularning ma'naviyati, madaniyati ko'plab yoshlarga ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarga ma'lum va mashhur sportchilarining hayoti va faoliyatiga, xususan, sport faoliyatiga oid yorqin dalillar, voqeya va hodisalar haqida ma'lumotlar berish, buyuk alloma – pahlavonlar xotira turnir musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish, yoshlarni bunday musobaqaqlarga tayyorlash va ishtirok etishlarini ta'minlash, ularni musobaqa qoidalariiga amal qilishga o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlardan foydalanish, Vatan, xalq, millat, milliy g'urur, sha'n-shuhrat uchun kurashishga va o'z orzu-umidlarini shakllantirish va unga erishish yo'lida yordam beradi. Kuzatish va tahlillarimiz yoshlarni sportiga qiziqtirish, ularni turli jismoniy mashqlarga, sport turlari ga jalg qilish, sportga bo'lgan moyilligini oshirish, jismoniy qobiliyatini rivojlantirish va sport musobaqalariga tayyorlash jarayonlarida sport mashq mashg'ulotlaridan, ma'naviyat va qadriyatlardan o'z o'mida

foydalanish barkamol avlod tarbiyalashning asosi ekanligini ko'satdi.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash kerakki, sportchilarimizning yuqorida qayd etilgan natijalarini jismoniy tarbiya va sport yoshlarni tarbiyalash omillaridan biri ekanligining aksiomasiadir.

#### Adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat. 2010.
2. Telman Achilov. Milliy kurash turlari texnikasi va taktikasi. – T. 2014.
3. Haydarbek Bobobekov v. b. "O'zbek kurashi dovrug'i". – T.: 2002.
4. J.Tulenov. Milliy qadriyatlар va ijtimoiy taraqqiyot. – T, 1999.

## MAKTAB O'QUVCHILARINING EKOLOGIK DUNYOQARASHLARINI SHAKLLANTIRISH

**A.A.Burxanov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogik instituti Pedagogika va menejment kafedasi dotsenti p.f.n**

**S.M.Aminov, mazkur institut o'qituvchisi**

В статье рассматривается вопрос загрязнения экологии и утверждается, что по мере роста населения мира его требования к природе возрастают и природа становится незащищенной материей.

**Ключевые слова и понятия:** человек, природа, энергетические ресурсы, рациональное использование, вода, почва, образование, экологические проблемы, окружающая среда.

The article deals with the issue of environmental pollution and argues that as the world's population grows, its demands on nature increase and nature becomes unprotected matter.

**Key words and concepts:** man, nature, energy resources, rational use, water, soil, education, environmental problems, environment.

Inson tabiat ustidan hukmronlik qilishi natijasida, uni o'zgarituvchi quadratli biogeoteknologik kuchga aylandi. Bu kuchning tabiatga ta'siri biosferaning tabiiy evolyusiyasi jarayoniga nisbatan bir necha bor tezroq namoyon bo'lmoqda. Bunga sabab- yer sharida aholi sonining oshib borishi, uning tabiatga nisbatan talablarini kuchayganligi oqibatida tabiat himoyasiz materiyaga aylandi. Tejamsiz ifloslanish natijasida tabiat boyliklari kamaya boshladi. Oqibatda suv, tuproq, energiya resurslaridan tejab-tergab, unumli foydalanish g'oyasi kelib chiqdi.

Ekologik omillar (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tabiiy) inson faoliyatining barcha sohalariga katta ta'sir etdi. Inson bilan tabiat orasida vujudga kelgan salbiy nomutanosiblik kuchayib, inson faoliyatini inqizoga uchrab, umumjahon ekologik muammosiga aylandi.

Tabiatdan foydalanish sohasida insonning ekologik jihatdan oqilona tadbirdirlari amalga oshirishi bosh vazifa bo'lib, u atrof-muhitni saqlash bo'yicha uzoq yillarga mo'ljallangan yagona uzlusiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimini yo'lga qo'yish bilan amalga oshirildi.

Ekologik ta'limning bosh maqsadi-aholining barcha qatlamlari ni junmladan, mакtab o'kuvchilarini atrof-muhitga, uni asrash muammolariga ongli munosabatini shakllantirishdan iborat. Buning uchun aholining barcha qatlamlari ekologiyaga oid davlat talablarini darajasida bilim egallashlari kerak.

Jahon ekologiya fanining asosiy vazifasi-kelajakda biosferada salbiy o'zgarishlarning oldini olish borasida yaqin yillarda va istiqbolga mo'ljallangan tadbirdirlari ishlab chiqishning nazariy asoslarini yaratishdir. Jahon ekologiya fani inson faoliyatini bilan bog'liq holda biosfera evolyusiyasi qonuniyatlarini o'rghanish bilan shug'ullanadi.

yer sharida vujudga kelgan ekologik muammolarni hal etish ayrim shaxslar tomonidan olib borilayotgan yoki ba'zi bir davlatlarda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy tadbirdirlarga bog'liq bo'lmay, balki butun dunyo xalqlarining o'zaro ongli darajadagi kelishuvlari, hamkorliklari asosida hal etiladigan keng qamrovli ekologik g'oyalar tizimidan iborat.

Ming yillikning boshsanishi muhim ikkita tamoyil (tendensiya) bilan xarakterlanadi. Birinchisi, xozirgi sivilizatsiya global ekologik

muammolar (iqlim o'zgarishi, ozon qatlaming yemirilishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o'mon va tuproqning inqirozi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha hajmdagi chiqindilarning hosil bo'lishi hamda ularni zararlantirish muammolarini va boshqalar) bilan bo'qnash keldi. Ikkinchidan, dunyo jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan engtangi istiqbolni belgilash u yodda tursin, hatto bugungi hodisalarini ham belgilab bo'lmaydi. Bu kabi muammolar O'zbekistonga ham xosdir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, sobiq totalitar tuzumdan tabiiy resurslarni beqaror boshqarish, shuningdek, kommunal, sanat manbalari va yerlarni sug'orishda foydalanilgan suvlar hisobiga zararlanish kabi murakkab ekologik muammolarni meros qilib oldi. Bu mamlakat tabiiy resurslari va atrof-muhitni boshqarish sohasida sezilarli darajada ko'pgina muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning o'ta muhim va samarali yo'li, bu uni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'lashdadir. Butun hududda xalqaro-huquqiy normalarni tan olinishining birdan-bir asosiy yo'li ikki va ko'p tomonlama shartnomasi hamda kelishuvlarni imzolashdir. Bugungi kunda O'zbekiston turli sohalardagi xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi ko'plab konvensiya va kelishuvlarni imzoladi hamda ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbliji, juda zarurligi bois eng muhim muammolarni junlasiga kiradi...» Shu sababli jahon hamjamiyati 1972 yildan boshlab 5 yununi Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e'lon qilib, mana 48 yildan buyon mavjud ekologik muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar yakunini baholab, kelgusi qadamlarni belgilab kelmoqda.

Mamlakatimizda ekologik mu'ammolarni hal etish, tabiatni muxofaza qilish borasida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sonli O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Bu qarorga asosan mакtab o'quvchilarini o'ttasida ekologik mu-